QASHQADARYO VILOYATI
KITOB TUMANI HOKIMINING
Q A R O R I

180700 Kitob tumani Katta yo‘l ko‘chasi 32-uy tel: 75-54-25-307

2024 - yil 10 - iyun 170-4-62-Q/24 Kitob tuman hokimligi

“Kitob-Shahrisabz” avtomobil yo‘li bilan “Kitob-Miraki” avtomobil yo‘li tutashgan chorrahada transportlar va piyodalarning harakatlanishi uchun svetofor hamda tegishli yo‘l belgilarini o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli qarori ijrosini ta’minlash va “Kitob-Shaxrisabz” avtomobil yo‘li bilan “Kitob-Miraki” avtomobil yo‘li tutashgan chorrahada transportlar va piyodalarning harakatlanishi uchun svetofor o‘rnatish, Buyuk ipak yo‘li, Katta yo‘l ko‘chalarida avtomobillar qatnovini tartibga solish, texnika xavfsizligini ta’minlash, tirbandlikning oldini olish, aholi hamda tadbirkorlarga qulayliklar yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-moddasiga asoslanib

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman Yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi (T.Achilov)ga “Kitob-Shahrisabz” avtomobil yo‘li bilan “Kitob-Miraki” avtomobil yo‘li tutashgan chorrahada 1.8 “Svetofor bilan tartibga solish”; 2.1. “Asosiy yo‘l”; 2.4. “Yo‘l bering!”; 3.1. “Kirish taqiqlangan”; 3.27. “Qayrilish taqiqlangan”; 3.28. “To‘xtab turish taqiqlangan”; 5.15. “To‘xtab turish joyi”; 5.17.1, 5.17.2. “Piyodalarning yer ostidan o‘tish joyi”; 5.41. “Foto va video qayd etish”; 7.21. “Evakuator ishlamoqda”, shuningdek, 7.2.3 taqiqlovchi belgilarining ta’sir oralig‘i oxirini


ko‘rsatuvchi, “Tik turgan signal bilan” transport svetofori hamda “Ogohlantiruvchi”, “Imtiyozli”, “Taqiqlovchi”, “Buyuruvchi”, “Axborot-ishora” va “Qo‘shimcha axborot” yo‘l belgilarini o‘rnatish yuklatilsin.

3. Tuman IIB YXXG (SH.Isaxanov) “Kitob-Shahrisabz” avtomobil yo‘li bilan “Kitob-Miraki” avtomobil yo‘li bilan tutash chorrahasida tegishli yo‘l belgilarini o‘rnatilishi munosobati bilan tirbandlikni oldini olish, aholi va texnika havfsizligini ta’minlash, avtomobillar qatnovini tartibga keltirish bo‘yicha nazoratni kuchaytirsin.

4. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari F.Usmanov zimmasiga yuklatilsin.

Kitob tumani hokimi **G‘AFUROV RUSTAM.ABDIRASULOVICH**

Kitob tuman hokimining
2024-yil 10-iyundagi
170-4-62-Q/24-son qaroriga
1-ilova



Kitob tuman hokimining
2024-yil 10-iyundagi
170-4-62-Q/24-son qaroriga
2-ilova

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
КАШКАДАРЁ КОМПЛЕКС
ЙЎЛЛАРНИ ЭКСПЛУАТАЦИЯ
ҚИЛИШ-ҲУДУДИЙ БОШҚАРМАСИ
Қарши ш. Хонобод кўчаси 23
Тел: 224-02-32

"Китоб-Шахрисабз" автомобиль йўли билан "Китоб-Миракӣ" автомобиль йўли туташган жойлари чорраҳада трансспортлар ва пиёдаларнинг ҳаракатланиши учун светофорлар ўрнатиш

ЛОЙИҲА ҲУЖЖАТИ

Смета ҳужжатлари ва чизмалар

Қарши-2024 й.

Нусха. №1

Kitob tuman hokimining
2024-yil 10-iyundagi
170-4-62-Q/24-son qaroriga
3-ilova

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ҚАШҚАДАРЁ КОМПЛЕКС
ЛОЙИҲА-ҚИДИРУВ ЭКСПЕДИЦИЯСИ
Карши ш. Хонобад кўчаси 23
Тел: 224-02-32

"Китоб- Шахрисабз" автомобиль йўли билан "Китоб-Мираки" автомобиль йўли туташган жойдаги чорраҳада транспортлар ва пиёдаларнинг ҳаракатланиши учун светафорлар ўрнатиш

ИШЧИ ҲУЖЖАТИ

Смета ҳужжатлари ва чизмалар

Қашқадарё КЛҚЭ си бошлиғи: - Д. Алимов

Бош муҳандиси: - У.Жураев

Лойиҳа бош муҳандиси: - Б.Бекназаров

Нусха. №1

Карши-2024 й.

Kitob tuman hokimining
2024-yil 10-iyundagi
170-4-62-Q/24-son qaroriga
4-ilova

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
AVTOMOBIL YO'LLARI DAVLAT QUMITASI

QASHQADARYO VILOYATI AVTOMOBIL
YO'LLARI HUDUDIY BOSH BOSHQARMASI

KITOB TUMAN YO'LLARDAN
FOYDALANISH UNITAR KORXONASI

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
АВТОМОБИЛЬ ЙЎЛЛАРИ ДАВЛАТ
КУМИТАСИ

ҚАШҚАДАРЁ ВИЛОЯТИ АВТОМОБИЛЬ
ЙЎЛЛАРИ ХУДУДИЙ БОШ БОШКАРМАСИ

КИТОБ ТУМАН ЙЎЛЛАРДАН
ФОЙДАЛАНИШ УНИТАР КОРХОНАСИ

O'zbekiston Respublikasi Qashqadaryo viloyati Kitob shahar, M.Tursunzoda ko'chasi 100 uy.
Tel.: 54-25-402, Faks: 54-25-402, H/r: 20210000504765071001 Milliy bank Shahrisabz filiali
Kitob shahar, MFO: 00191, INN: 206994614, OKONX: 61129

"07" 08 2024 йил № 54 Китоб шахри

Қашқадарё комплекс лойиҳа
қидирув экспедицияси
бошлиғи Д. Алимовга

Смета ҳужжатлари

Китоб туиани йўллардан фойдаланиш давлат муассаси Сиздан "Китоб – Шахрисабз" автомобиль йўли билан "Китоб – Мираки" автомобиль йўли туташган жойдаги чорраҳада транспортлар ва пиёдаларнинг ҳаракатланишини ургапиб чиқиб ушбу чорраҳада транспорт ва пиёдалар ҳаракатини бошқариш учун, Хомий ташкилот "Дўстлик" МЧЖ ёрдамида светафорлар ўрнатиш, амалдаги меъёрий ҳужжатларга мос келмайдиган мавжуд йўл белгиларини алмаштириш ҳамда йўл чизиқларини(разметка) чизиш ишлари учун лойиҳа смета ҳужжатларини тайёрлаб беришингизни сўрайди.

Китоб ТЙФДМ директири : **Т.Ачилов**

Kitob tuman hokimining
2024-yil 10-iyundagi
170-4-62-Q/24-son qaroriga
5-ilova

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
AVTOMOBIL YO'LLARI DAVLAT QUMITASI
QASHQADARYO VILOYATI AVTOMOBIL YO'LLARI HUDUDIY BOSH BOSHQARMASI
KITOB TUMAN YO'LLARDAN FOYDALANISH KORXONASI DAVLAT MUASSASASI

O'zbekiston Respublikasi Qashqadaryo viloyati Kitob shahar, M.Tursunzoda ko'chasi 100-uy.Mob.tel.99-945-24-48,
Tel: 51-25-802,Maxsus Sh/H/R: 47001086010232704519311 8004, INN: 206994614,OKONX:42110,MarkaziyBank Toshkent
XKKM, MFO: 00014, 23402000300100001010, INN: 201122919

2024-yil 21 may 117 - sonli Kitob tumani

Kitob tuman hokimi
R.G`.G`ofurovga

Kitob TYFKDM direktori
T.Achilov tomonidan

ILTIMOSNOMA

Kitob tuman yo`llardan foydalanish korxonasi davlat muassassasi shuni yozib ma`lum qiladiki, 4K 303 "Kitob-Miraki" avtomobil yo`li bilan 4P23 L avtomobil yo`lini kesishgan chorrahalarida tuman dehqon bozori oldidagi tirbandlikni yo`qotish hamda transport vositalari va piyodalarni xafvsizligini ta`minlash maqsadida ushbu chorrahaga svetofor va qoidabuzarlikni qayd qiluvchi kameralar o`rnatishga amaliy yordam berishingizni so`raymiz.

Kitob TYFK DM direktori : T.Achilov

Kitob tuman hokimining
2024-yil 10-iyundagi
170-4-62-Q/24-son qaroriga
6-ilova

NORMATIV-HUQUQIY HUJJAT LOYIHASINING LINGVISTIK EKSPERTIZA 1-SONLI XULOSASI

1.Normativ-huquqiy hujjat loyihasining turi: qaror

2.Normativ-huquqiy hujjat loyihasining nomi: Kitob-Shahrisabz" avtomobil yo'li bilan "Kitob-Miraki" avtomobil yo'li tutashgan chorrahada transport vositalari va piyodalar harakatlanishi uchun svetoforlar hamda tegishli yo'l belgilari o'rnatish to'g'risida

3.Lingvistik ekspertizani o'tkazuvchi: Kitob tumani hokimining ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchisi L. O'roqova

4. Lingvistik ekspertiza o'tkazilgan sana: 2024-yil 10-май

5.Normativ-huquqiy hujjat loyihasi matnida aniqlangan xato va kamchiliklarni bartaraf etish, tegishli tuzatishlar kiritish, matnni qisqartirish, qayta ishlash bo'yicha aniq tavsiyalar ko'rsatiladi.

Qaror loyihasidagi uslubiy, imloviy, tinish belgilariga oid va boshqa xatolarni tuzatish bo'yicha tavsiyalar berildi.

BERILGAN TAVSIYALAR

T/r	Loyiha matnida	Tavsiyada
1.	Kitob-Shaxrisabz" avtomobil yo'li bilan "Kitob-Miraki" avtomobil yo'li bilan tutash chorrahada transportlar va piyodalarning harakatlanishi uchun svetaforlar hamda tegishli yo'l belgilarini o'rnatish to'g'risida	Kitob-Shahrisabz" avtomobil yo'li bilan "Kitob-Miraki" avtomobil yo'li tutashgan chorrahada transport vositalari va piyodalar harakatlanishi uchun svetoforlar hamda tegishli yo'l belgilari o'rnatish to'g'risida
2.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi "Yo'l harakati qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 172-sonli qarori ijrosini ta'minlash va "Kitob-Shaxrisabz" avtomobil yo'li bilan "Kitob-Miraki" avtomobil yo'li bilan tutash chorrahada transportlar va piyodalarning harakatlanishi uchun svetaforlar o'rnatish yuzasidagi Buyuk Ipak Yo'li hamda Katta yo'l ko'chalarida avtomobillar qatnovini tartibga solish, texnika xavfsizligini ta'minlash, tirbandlikni oldini olish, aholi hamda tadbirkorlarga qulayliklar yaratish maqsadida,	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi "Yo'l harakati qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 172-sonli qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, Buyuk ipak yo'li, Katta yo'l ko'chalarida avtomobillar qatnovini tartibga solish, texnika xavfsizligini ta'minlash, tirbandlikning oldini olish, aholiga va tadbirkorlarga qulayliklar yaratish hamda "Kitob-Shahrisabz" avtomobil yo'li bilan "Kitob-Miraki" avtomobil yo'li tutashgan chorrahada svetofor o'rnatish maqsadida tuman Avtomobil yo'llaridan foydalanish korxonasi davlat muassasasi direktori T.Achilovning 2024-yil 21-maydagi 117-sonli xatini inobatga olib,
3.	1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi "Yo'l harakati qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 172-sonli qarori ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.	1. Tuman Avtomobil yo'llaridan foydalanish korxonasi davlat muassasasi direktori T.Achilovning 2024-yil 21-maydagi 117-sonli xati inobatga olinsin.
4.	2. Tuman yo'llardan foydalanish unitar korxonasi (T.Achilov)ga "Kitob-Shaxrisabz" avtomobil yo'li bilan "Kitob-Miraki" avtomobil yo'li bilan tutash chorrahasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi "Yo'l harakati qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 172-sonli qaroriga asosan	2. Tuman yo'llardan foydalanish korxonasi (T.Achilov)ga "Kitob-Shahrisabz" avtomobil yo'li bilan "Kitob-Miraki" avtomobil yo'li tutashgan chorrahada
5.	3. Tuman IIB YXXG (Sh.Isaxanov)ga: "Kitob-Shaxrisabz" avtomobil yo'li bilan "Kitob-Miraki" avtomobil yo'li bilan tutash chorrahasida tegishli yo'l belgilarini o'rnatilishi munosobati bilan: - tirbandlikni oldini olish; - aholi va texnika havfsizligini ta'minlash; - avtomobillar qatnovini tartibga keltirish bo'yicha nazoratni kuchaytirsin.	3. Tuman IIB YHXG (Sh.Isaxanov) "Kitob-Shahrisabz" avtomobil yo'li bilan "Kitob-Miraki" avtomobil yo'li tutashgan chorrahada tegishli yo'l belgilari o'rnatilgani munosabati bilan tirbandlikning oldini olish, aholi va texnika xavfsizligini ta'minlash, avtomobillar qatnovini tartibga keltirish bo'yicha nazoratni kuchaytirsin.

Maslahatchi L. O'roqova

Kitob tuman hokimining
2024-yil 10-iyundagi
170-4-62-Q/24-son qaroriga
7-ilova

XUQUQIY XULOSA.

Kitob tuman xokimining "Kitob-Shahrisabz" avtomobil yo'li bilan "Kitob-Miraki" avtomobil yo'li tutashgan chorrahada transportlar va piyodalarning harakatlanishi uchun svetofor hamda tegishli yo'l belgilarini o'rnatish to'g'risida qaror loyihasi

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi "Yo'l harakati qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 172-sonli qarori ijrosini ta'minlash va "Kitob-Shaxrisabz" avtomobil yo'li bilan "Kitob-Miraki" avtomobil yo'li tutashgan chorrahada transportlar va piyodalarning harakatlanishi uchun svetofor o'rnatish, Buyuk ipak yo'li, Katta yo'l ko'chalarida avtomobillar qatnovini tartibga solish, texnika xavfsizligini ta'minlash, tirbandlikning oldini olish, aholi hamda tadbirkorlarga qulayliklar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunning 6-moddasiga asoslanib ishlab chiqilgan.

Tuman xokimining ushbu qaror loyixasi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, qonunchilikka va qonunchilik texnikasi qoidalariga to'liq javob beradi.

Kitob tuman xokimining ""Kitob-Shaxrisabz" avtomobil yo'li bilan "Kitob-Miraki" avtomobil yo'li bilan tutash chorrahada transportlar va piyodalarning harakatlanishi uchun svetaforlar hamda tegishli yo'l belgilarini o'rnatish to'g'risida"gi qaror loyixasi 2024-yil 27-aprel kuni interaktiv portalga muxokoma uchun kiritilgan (ID № 1761515), muxokoma muddati yakunlanganligi sababli tuman Adliya bo'limiga xuquqiy ekspertizadan o'tkazish uchun yuborilmoqda.

Kitob tuman hokimligi bosh yuriskonsulti
2- darajali Adliya maslahatchisi **Sh.B.Eshniyazov .**